

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 38/09.07.2020. San. 119.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

GAIPOVA MUXAYYO TULYAGANOVNA

**TOSHKENT YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI MAKTABI AN‘ANALARI VA
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI**

17.00.04 – Tasviriy va amaliy bezak san‘ati

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Gaipova Muhayyo Tulyaganovna

Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi an‘analari va o‘ziga xos
xususiyati..... 3

Гаипова Мухайё Тулягановна

Традиции и особенности ташкентской школы резьбы по дереву..... 22

Gaipova Muhayyo Tulyaganovna

The Tashkent wood carving school’s rituals and particular features..... 46

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

Falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/San196 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mrdi.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nishanova Kamola Solijon qizi san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Hakimov Akbar Abdullaevich O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi san’atshunoslik fanlari doktori, professor,

Xasanova Nargiza Sagdullayevna san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.38/09.07.2020. San.119.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko‘chasi 123 uy. Tel.: (+99871) 255-98-39, faks: (+99871) 255-18-33, e-mail: info@mrdi.uz).

Dissertatsiya bilan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti kutubxonasida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy. Tel.: (+99871) 255-98-39, e-mail: info@mrdi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil “___” _____ dagi № _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

K.B.Akilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor

K.S.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A.Ziyayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arxitektura fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. XX asr oxiri XXI asr boshlaridagi globallashuv jarayonining kuchayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji natijasida madaniyatning integratsiyalashuvi bilan bir qatorda milliy o'ziga xoslikning qadrsizlanishi xavfi tug'ildi. Jahonda unikal madaniy an'analar, xususan mahalliy indentiklikni aks ettiruvchi badiiy hunarmandchilikni o'rganish va saqlab qolish masalasiga aktual masalalar qatorida qarash boshlandi. Jahonda milliy madaniy meros, xususan, xalq amaliy san'ati, uning asriy an'analari, tarixiy shakllanish bosqichlari, badiiy xususiyatlari va o'ziga xosliklari, xalq amaliy san'atining an'alarini saqlab qolish, badiiy jihatdan yanada boyitish va keng targ'ib qilish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

Jahon ilm fanida autentik an'analarni saqlab qolish va qadriyatlarni uzatuvchi vosita sifatida o'rganish masalasi YUNESKO kabi bir qator xalqaro tashkilotlarning tashabbusiga aylangan. Texnologik taraqqiyot davrida hunarmandning yangilikka intilishini hudud maktablari an'analari kesimida tadqiq etish, xalq hunarmandchiligini muzeylashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda tarixiy-ijtimoiy voqealar ta'sirida amaliy san'atning yog'och o'ymakorligidagi lokal jarayonlar, naqshlar semantikasi, buyumlarni yaratish texnologiyasiga oid xususiyatlarni belgilash va qadriyatlarni saqlash hamda an'analarning amaliy san'at turlariga ta'sirini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda san'at sohasini rivojlantirish bo'yicha qator ishlar va muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 75-maqсад qilib "Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish"ga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda atoqli O'zbekiston xalq rassomlari va amaliy san'ati ustalarining namunali hayoti va ijodini keng targ'ib qilish hamda ular xotirasini abadiylashtirish, O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini xalqaro darajada ommalashtirish, tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarida yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ko'zda tutilgan¹. Buning natijasida hunarmandchilikning qadriyat sifatida qayta anglanishi jarayonlarida an'anaviy o'ziga xoslik dialogi ta'sirini o'rganish, tarixiy, asl badiiy qadriyatlar tizimida yog'och o'ymakorlik maktablarining an'alarini saqlab qolish, undagi vorisiylikni ta'minlash xamda yangiliklarni ijodiy talqin etishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3219-son "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3393-son "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 28 noyabrdagi PQ-4539-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" ПФ-60-сонли Фармони. www.lex.uz

son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020 yil 21 apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy – ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yog‘och o‘ymakorlik san‘atiga azaldan qiziqish katta bo‘lgan. Ma‘lumki, Turkiston madaniyati va san‘atini o‘rganish, ilmiy tadqiq etish borasidagi ilk harakatlar XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Dastlab shunchaki qiziqish tarzida ishlangan etnografik etyudlar, chizma lavhalar, xotira bayonnomalari ko‘rinishidagi bu materiallar tadqiqotchilar safining kengayishiga olib keldi. Ular bevosita yog‘och o‘ymakorlik san‘ati, xususan, Toshkent yog‘och o‘ymakorlik san‘atining madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini tadqiq qilishni o‘z tadqiqotlarining obyektini qilib olishmagan bo‘lsalarda, lekin ularning me‘moriy bezak, amaliy san‘atga va amaliy bezak san‘atiga oid kuzatish va bayonlari biz tanlagan muammoni tadqiq qilish, san‘at va madaniyat turlarini qiyosiy o‘rganish uchun muhim manba sifatida qimmatlidir. O‘zbekiston yog‘och o‘ymakorligini san‘atshunoslik kesimida tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda ikki guruhga mustaqillik davrigacha va mustaqillik yillaridan bugungi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhdagi adabiyotlardan B.P.Denike, B.V.Veymar², V.A.Voronina³, V.A.Nilsen va V.N.Manakova⁴, G.A.Pugachenkova⁵, L.I.Rempel⁶,

² Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии. – М. – Л.: Наука, 1940. – 190 с.; Веймарн Б.В. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана. – М.: Государственное издательство архитектуры, 1948. – 57 с.; Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1968. – 168 с.; Веймарн Б.В. Искусство арабских стран и Ирана УП-ХУП вв. – М.: Искусство, 1974. – 187 с.

³ Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. – М.: Государственное издательство по архитектуре и градостроительству, 1951. – 167 с.; Воронина В.Л. Колонны соборной мечети в Хиве. – М.: Архитектурное наследие, 1958.; Воронина В.Л. Резное дерево. МИА, вып.15. – М. – Л., 1950.

⁴ Нильсен В.А. Манакова В.И. Архитектурный декор памятников Узбекистана. – Л., 1974. – 272 с.

⁵ Пугаченкова Г.А. Бактрия. Из истории античной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1973. – 124 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Бухара. – М., 1948. – 70 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. – Т.: 1958. – 170 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIX в. – М.: Искусство, 1965. – 417 с.; Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – М.: Искусство, 1982. – 288 с.

⁶ Ремпель Л.И. Панжара. Архитектурные решётки и их построение. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1957. – 144 с.

Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент, Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1961. – 606 с.

Ремпель Л.И. Резьба и роспись по ганчу и дереву. – Ташкент, 1962. – 131 с.

Ремпель Л.И. Искусство Руси и Восток как историко-культурная и художественная проблема. – Ташкент, Издательство литературы и искусства им.Г.Гуляма, 1969. – 85 с.

A.K.Pisarchik⁷ kabi olimlarning O'rta Osiyo san'ati va madaniyati borasidagi tadqiqotlarida, amaliy bezak san'atiga oid qimmatli fikrlari e'tiborga loyiqdir.

Markaziy Osiyo xalqlari me'morchiligidagi bezaklarni keng o'rganigan dastlabki olimlardan biri B.P.Denike⁸ o'z monografiyasida asosan Uzkomstaris (O'zbekiston madaniy yodgorliklarni qo'riqlash va o'rganish bo'yicha qo'mita) tomonidan o'rganilgan ilmiy manbalar, bir qator ketma-ket ochilayotgan arxeologik yodgorliklar, O'zbekiston hududidagi badiiy va tarixiy me'moriy obidalar tahliliga tayangan holda ilmiy xulosalar bergan. Olim ilk marotaba ganch, tosh o'ymakorligi, g'ishtdan terilgan yoki koshin bezaklar qatorida yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanish tarixini yoritishga muvaffaq bo'lgan.

O'zbekiston yog'och o'ymakorligini tizimli tahlil etgan ilk olimlardan biri A.Avedova sanalib, u o'zining bir qator ilmiy izlanishlarida XIX-XX asrda ushbu san'at turining tarixi, zamonaviy jarayondagi ustalar, mahalliy maktablar haqida qimmatli ma'lumotlar to'plagan. Muallif muzey kolleksiyalaridagi namunalar, ustalar ijodini yillar davomida kuzatishi asosida 1970-yillar amaliy san'ati oldida turgan dolzrab muammolarni ko'taradi, uning yechimlari borasida qimmatli tavsiyalar beradi⁹. N.A.Avedovaning yana bir tadqiqotida Toshent yog'och o'ymakorligi maktabi Maqsud Qosimov ijodi orqali tahlil etilgan¹⁰.

Hunarmandchilik buyumlarining sanoatlashtirish jarayonlari bilan bog'liq izlanishlar hamda amaliy san'at turlari klassifikatsiyasi, maktab va markazlariga oid ma'lumotlar A.S.Morozova, N.A.Avedova, S.M.Mahkamova, T.Abdullayev, A.Xakimov¹¹ kabilarning ilmiy izlanishlarida aks etgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida A.Xakimov¹² tadqiqotlarida O'zbekiston amaliy san'atidagi an'anaviy o'ziga xoslik va zamonaviy jarayonlar tadqiq etiladi. Shuningdek, K.Akilova, E.Gyul, S.Aliyeva, R.Fatxullayev, M.Abdullayev hamda B.Nodirning¹³ ilmiy izlanishlarida o'zbek xalq amaliy san'atiga oid tarixiy-nazariy masalalar o'rganilgan.

⁷ Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. Душанбе 1975.

⁸ Денике Б. П. Архитектурный орнамент Средней Азии. – Москва, – Ленинград: Издательство Всесоюзной Академии архитектуры, 1939. – 228 с.,

⁹ Аведова А. Резьба по дереву в Узбекистане (Творчество народных мастеров XIX — XX вв.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: 1971. – С. 22

¹⁰ Аведова Н.А. Ташкентская резьба по дереву в работах Максуда Касымова. – Ташкент. 1960. – 91 с.

¹¹ Морозова А. Народное прикладное искусство Хорезмской области и его мастера. Рук. НИИИ АН РУз. Инв. № 141. 41 л.; Аведова Н. А., Морозова А. С., Махкамova С. М. Народное искусство Узбекистана. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства им. Г.Гуляма, 1979;

¹² Хакимов А.А. Декоративное искусство Средней Азии / К проблеме традиций и новаторства. – Ташкент: Фан, 1988; Atlas of Central Asian artistic crafts and trades. A. Khakimov – author of the scientific project and author of the next chapters - Introduction, Ceramics, Copper Embossing, Knife making. Volume I. Uzbekistan. – Tashkent, 1999; Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкента, 2013. – С. 207.; Хакимов А. Ўзбекистон хунармандчилиги дурдоналари. – Тошкент, 2019.

¹³ Акилова К. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX века: проблема развития: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д-ра искусствоведения: 17.00.04. – Ташкент, 2002.; Гюль Э. Проблема этнокультурных взаимодействий в античном и средневековом искусстве Узбекистана / автореферет дис. на соис. уч. степени доктора искусствоведения по специальности 17.00.04. – Ташкент, 2002; Алиева С. XI–XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадий хусусиятлари. Санъатшунослик фанлари докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2018. Фатхуллаев Р. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистон амалий-безак санъатидаги тасвирий мавзулар. Санъатшунослик фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2000; Абдуллаев М. Хоразм амалий безак-санъатининг ривожланиш тарихи (XVI аср–XX аср бошлари). Санъатшунослик фанлари номз. дисс.-Тошкент, 2018.

Dissertatsiyada ko'rib chiqilgan tadqiqotlardan farqli ravishda Toshkent yog'och o'ymakorligi tizimli o'rganildi. Bu jarayonda usta-hunarmandlar ijodi ijobiy va salbiy jarayonlar kesimida tahlil etildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi YUNESKO Qatnashuv dasturi doirasidagi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining "An'analar orqali innovatsiyalar: milliy hunarmandchilik sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish" (2021-2022 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabi an'analari va o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Yog'och o'ymakorligi san'atining tadrijiy rivojlanishi bosqichlarini aniqlash;

O'zbekistonda yog'och o'ymakorlik maktablarining badiiy xususiyatlarini belgilash;

Toshkent yog'och o'ymakorligining badiiy maktab sifatida shakllanishi bosqichlarini aniqlash;

Toshkent yog'och o'ymakorligi Raxmatullayevlar, Ibragimovlar hamda Azlarovlar sulolasi vakillari ijodining o'rnini ochib berish;

Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabiga oid naqshlar tizimi, kompozitsiya, texnologiyalarni ko'rsatish;

Zamonaviy Toshkent arxitekturasida yog'och o'ymakorligining o'rnini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabi an'analari va uning o'ziga xos xususiyatlari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini yog'och o'ymakorligining an'anaviy va o'ziga xos usullari, badiiy va texnologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, qiyosiy tahlil, xronologik tizimli tahlil, tasniflash, kuzatuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabiga oid ustalardan Muxarram Ibragimova tomonidan ilk bor tomoshoqovoqlarga naqshlarni to'g'ridan to'g'ri axtasiz o'ziga chizib, palmetta gulli o'ymakor naqshlar yaratilganligi hamda ular bir-biridan chizma jihatidan takrorlanmasligi aniqlangan;

Suloalaviy ustalardan Azlarovlar ijodiy ishlarini buyurtma talablari asosida xattotlik, minatyura, naqqoshlik kabi boshqa san'at turlari bilan uyg'un holda yaratayotganligi, Ibragimovlar sulolasi vakili monumental arxitektuaviy yog'och konstruksiya, panjara, qandillarga to'rpardani eslatuvchi islmiy ochiq o'ymakor naqshlar ishlab, ularning funksional vazifasini oshirish maqsadida tashqi qismini shisha bilan yopishi natijasida Toshkent yog'och o'ymakorligida yangi uslublar paydo bo'layotganligi dalillangan;

XX asrning oxiriga qadar Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabi ustalari tomonidan ustun, eshik, toqilarni bezashda sayoz zaminli, yassi o'ymali naqshlarda

Qo‘qon maktabi an‘analari kuzatilgan bo‘lsa, 2000-yillardan yog‘och o‘ymakorligiga zamonaviy texnologiyalarni kirib kelishi natijasida uch va to‘rt qavatli murakkab, mayda va chuqur zaminli o‘ymakor naqshlar texnikasi ustunlik qilayotgani asoslangan;

yog‘och o‘ymakor ustalar naqqoshlar bilan birgalikda naqsh kompozitsiyasini yaratib, yillar davomida takomillashtirib, axtalar avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tganligi, 2000-yillardan boshlab zamonaviy texnologiyalardan foydalangani natijasida maktablarning o‘ziga xosligi, hunarmandlarning ijodiy yondashuvi yo‘qolib ketish xavfi borligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent yog‘och o‘ymakorligida kechayotgan an‘anaviy o‘ziga xosliklar va zamonaviy jarayonlarning badiiy xususiyatlari, hunarmandchilik asarlarini yaratilish texnologiyalari, milliy naqshlar va zamonaviy bezak turlarini tizimlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi rivojiga bag‘ishlangan xalqaro ekskursiyani konsepsiyasini ishlab chiqishda qo‘llanilgan;

san‘at yo‘nalishiga ixtisoslashgan o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalari talabalarining “Amaliy bezak san‘ati tarixi” faniga oid o‘quv qo‘llanmani yaratilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning an‘anaviylik, zamonaviylik kesimida tahlil etilgani hamda bugungi kundagi san‘atshunoslikning taqqoslash, tahliliy, kompleks, analitik metodlari hamda nazariy yondashuvlarning qo‘llanilgani, tavsiflash, shuningdek qiyosiy-tipologik kabi usullar bilan asoslangani, Mustaqillik davri badiiy hunarmandchiligiga oid manbalarga tayanilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nazariy xulosalarni asoslashda fanlararo, majmuaviy, tarixiy-madaniyatshunoslik, san‘atshunoslik va qiyosiy tipologik yondashuvlarni qo‘llagan holda Toshkent yog‘och o‘ymakorligidagi qadriyatlarni qayta tiklash, saqlab qolishda milliy an‘analardan foydalanish hamda O‘zbekistonda zamonaviy amaliy san‘atdagi unsurlarni salbiy jihatdan yangilash muammolarini hal etish imkonini beruvchi ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada o‘z yechimini topgan masalalar bo‘yicha olingan ma‘lumotlar amaliy san‘at yo‘nalishidagi mutaxassislik fanlari bo‘yicha ma‘ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda hamda mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy-amaliy manba sifatida hamda o‘zbek yog‘och o‘ymakorligini rivojlantirishga bag‘ishlangan festivallar, ko‘rgazmalar, amaliy innovatsion loyihalar tashkillashtirish va shu orqali art-turizmni kuchaytirish, ilmiy konferensiyalar tashkil etishda amaliy asos sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi an‘analarining o‘ziga xos xususiyatlarini talqin qilish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston yog‘och o‘ymakorligi maktablaridan farqli o‘laroq, Toshkent

yog‘och o‘ymakorligi maktabiga oid ustalardan Muharram Ibragimova tomonidan naqshlar to‘g‘ridan to‘g‘ri buyumlarning o‘ziga chizib, erkin dinamik kompozitsiyalar yaratganligi hamda ular bir-birida takrorlanmasligi aniqlanib, uning novator rassom sifatida e‘tirof etish mumkin ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan “Amaliy bezak san‘ati tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus a‘lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrda 676-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 676-353-son nashr guvohnomasi) Natijada, O‘zbekiston yog‘och o‘ymakorligi maktabining shakllanish tarixi va badiiy bezak uslublarining o‘rganilishi, zamonaviy yog‘och o‘ymakorligidagi asosiy tendensiyalar, yutuq va kamchiliklar, amaliy tajribalarga doir ma‘lumotlar yoritilishiga xizmat qilgan.

Ibragimovlar sulolasi vakili Jamshid Gaipov monumental arxitekturaviy yog‘och konstruksiya, panjara, qandillarga to‘rpardani eslatuvchi islamiy ochiq o‘yma naqshlar ishlaganligi va ularning tashqi qismi shisha bilan yopilishi natijasida Toshkent yog‘och o‘ymakorligida yangi uslublar paydo bo‘layotganligi, sulolaviy ustalardan Azlarovlar maishiy buyumlardagi naqsh kompozitsiyalarini boshqa san‘at turlari (hattotlik, miniatyura, rangli naqqoshlik) bilan uyg‘un holda yaratayotganligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlardan O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyidagi Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi, yog‘och o‘ymakor ustalar va ularning sulolasiga xos ustoz-shogird an‘anasiga bag‘ishlangan ekskursiya matnini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy me‘ros agentligining 2024-yil 8-oktabrdagi 02-05-3764-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ekskursiyada Toshkent yog‘och o‘ymakorligiga oid to‘liq o‘rganilmagan badiiy jarayonlar, xususan yaratilayotgan buyumlarda kuzatilayotgan ijodiy o‘zgarishlar keng yoritilishiga xizmat qilgan;

yog‘och o‘ymakor ustalar naqqoshlar bilan birgalikda naqsh kompozitsiyasini yaratib, yillar davomida takomillashtirib, axtalar avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tganligi, 2000-yillardan boshlab zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi natijasida hunarmandlarning o‘ziga xos ijodiy yondashuvi yo‘qolib ketish xavfi borligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlardan “Amaliy bezak san‘ati tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus a‘lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrda 676-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 676-353-son nashr guvohnomasi) Natijada, O‘zbekiston zamonaviy yog‘och o‘ymakorligi maktabining naqshlar guruhlarini aniqlash, yangi texnologiyalarning o‘ymakorlik an‘analariga ta‘siri, yutuq va kamchiliklarga doir ma‘lumotlar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

XX asrning oxirgi o‘n yilligida Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabi sulolaviy ustalarning ustun, eshik, toqilarni bezashda ishlatilgan kalta bo‘rtmali, yassi o‘ymali naqshlarda Qo‘qon maktabi an‘analari kuzatilgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yillikda eshiklar bezagida uch va to‘rt qavatli mayda o‘yma naqshlar texnikasi ustunlik qilganligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlardan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining yog‘och o‘ymakorligiga oid kolleksiyasini boyitish, so‘nggi yillarda yog‘och o‘ymakorligida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan yangi ashyolarni atributsiya qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 3-iyundagi 3/1255-1379-son guvohnomasi). Natijada,

Toshkent yog‘och o‘ymakorligiga oid manbalar bazasi kengaytirilib, Toshkent yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha ko‘rgazmalar tashkil qilish, dissertatsiyadagi fotolar XX asrning ikkinchi yarmida Toshkentda faoliyat yuritgan yog‘och o‘ymakorlar sulolalarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy maqola nashr etilgan bo‘lib, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta, respublika konferensiyalarida 4 ta, xorijiy konferensiyalarda 2 ta ilmiy maqola e‘lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Umumiy hajmi 127 sahifadan iborat.

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot predmeti va obyekti aniqlangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yog‘och o‘ymakorlik san‘atining rivoji va uni o‘rganish masalalari”** deb nomlangan birinchi bobi uch bo‘limdan iborat. Mazkur bobda yog‘och o‘ymakorligini o‘rganishga oid ilmiy adabiyotlarning tahliliy sharhi keltirilgan hamda yog‘och o‘ymakorligining tarixiy taraqqiyoti va uning nazariy o‘rganilishi kesimida tahlil etilgan, O‘zbekiston yog‘och o‘ymakorlik maktablarining xususiyatlari ochib berilgan. Bobning **“O‘zbekiston yog‘och o‘ymakorligi san‘atining ilmiy o‘rganilishi”** deb nomlangan birinchi bo‘limida o‘zbek amaliy san‘atini o‘rganishda tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari va nazariy yondashuvlari tadqiq etilib, hunarmandchilik turlari badiiy talqinining o‘rganilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlili o‘rin olgan. Tadqiqotchilar bevosita yog‘och o‘ymakorlik san‘ati, xususan, Toshkent yog‘och o‘ymakorlik san‘atining madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rnini tadqiq qilishni o‘z tadqiqotlarining obyekti qilib olishmagan bo‘lsalarda, lekin ularning me‘moriy bezak, amaliy bezak san‘atiga oid ma‘lumotlari biz tanlagan muammoni tadqiq qilish, san‘at va madaniyat turlarini qiyosiy o‘rganish uchun muhim manba sifatida qimmatlidir. Bulardan ayniqsa, B.P.Denike¹⁴, B.V.Veymarn¹⁵, V.A.Voronina¹⁶,

¹⁴ Денике Б. П. Архитектурный орнамент Средней Азии. — Москва ; Ленинград : Издательство Всесоюзной Академии архитектуры, 1939. — 228 с., ил.; Деники Б.П. Искусство Средней Азии. — М.:Центральное издательство народов СССР,-М., 1927. -53 с.

¹⁵ Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии. —М.Л.: Наука, 1940.-190 с.

Веймарн Б.В. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана. М.: Государственное издательство архитектуры, 1948. -57 с.

Веймарн Б.В. Искусство Средней Азии и Казахстана. — М.: Наука, 1968.- 168 с.

Веймарн Б.В. Искусство арабских стран и Ирана VII-XVII вв. —М.: Искусство, 1974. -187 с.

V.A.Nilsen, V.N.Manakova¹⁷, G.A.Pugachenkova¹⁸, L.I.Rempel¹⁹, va A.K.Pisarchik²⁰ kabi olimlarning O'rta Osiyo san'ati va madaniyati borasidagi amaliy bezak san'atiga oid tadqiqotlarini e'tirof etish lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari me'morchiligidagi bezaklarni keng o'rganan dastlabki olimlardan biri B.P.Denike²¹ o'z monografiyasida asosan Uzkomstaris (O'zbekiston madaniy yodgorliklarni qo'riqlash va o'rganish bo'yicha komitet) tomonidan o'rganilgan ilmiy manbalar, bir qator ketma-ket ochilayotgan arxeologik yodgorliklar, badiiy va tarixiy me'moriy obidalar tahliliga tayangan holda ilmiy xulosalar bergan. Olim ilk marotaba ganch, tosh o'ymakorligi, g'ishtdan terilgan yoki koshin bezaklar qatorida yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanish tarixini yoritishga muvaffaq bo'lgan.

O'zbekiston yog'och o'ymakorligini tizimli tahlil etgan ilk olimlardan biri A.Avedova sanalib, u o'zining bir qator ilmiy izlanishlarida XIX — XX asrda ushbu san'at turining tarixi, zamonaviy jarayondagi ustalar, mahalliy maktablar haqida qimmatli ma'lumotlar to'plagan. Muallif muzey kolleksiyalaridagi namunalar, ustalar ijodini yillar davomida kuzatishi asosida 1970 yillar amaliy san'ati oldida turgan dolzrab muammolarni ko'taradi, uning yechimlari borasida qimmatli tavsiyalar beradi²². Toshent yog'och o'ymakorligi maktabini N.A.Avedova Maqsud Qosimov ijodi orqali tahlil etgan²³.

Yog'och o'ymakorligi buyumlarining sanoatlashtirilishi jarayonlari bilan bog'liq izlanishlar hamda amaliy san'at turlari klassifikatsiyasi, maktab va markazlariga oid ma'lumotlar A.S.Morozova, N.A.Avedova, S.M.Mahkamova, T.Abdullayev, A.Xakimov²⁴ kabilarning ilmiy izlanishlarida aks etgan.

¹⁶ Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. — М.: Государственное издательство по архитектуре и градостроительству, 1951. -167 с.

Воронина В.Л. Колонны соборной мечети в Хиве. «Архитектурное наследство», 11, 1958.

Воронина В.Л. Резное дерево. МИА, вып.15. М.-Л. 1950.

¹⁷ Нильсен В.А. Манакова В.И. Архитектурный декор памятников Узбекистана. —Л., 1974. -272 с.

¹⁸ Пугаченкова Г.А. Бактрия. Из истории античной культуры Узбекистана. Ташкент, 1973. -124 с.

Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Бухара. —М., 1948. -70 с.

Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана. —Т.: 1958. -170 с.

Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времен до середины XIXв. — М.:Искусство, 1965.-417 с.

Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. —М.:Искусство, 1982. -288 с.

¹⁹ Ремпель Л.И. Панжара. Архитектурные решётки и их построение.—Ташкент: Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1957. 144 с.

Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. —Ташкент, Государственное издательство художественной литературы УзССР, 1961.-606 с.

Ремпель Л.И. Резьба и роспись по ганчу и дереву. —Ташкент, 1962.-131с.

Ремпель Л.И. Искусство Руси и Восток как историко-культурная и художественная проблема. —Ташкент, Издательство литературы и искусства им.Г.Гуляма, 1969. -85с.

²⁰ Писарчик А.К. Народная архитектура Самарканда. Душанбе 1975.

²¹ Денике Б. П. Архитектурный орнамент Средней Азии. — Москва ; Ленинград : Издательство Всесоюзной Академии архитектуры, 1939. — 228 с., ил.

²² Аведова Н.А. Резьба по дереву в Узбекистане (Творчество народных мастеров XIX — XX вв.). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. — Ташкент: 1971. С. 22

²³ Аведова Н.А. Ташкентская резьба по дереву в работах Максуда Касымова. — Ташкент. 1960. 91 с.

²⁴ Морозова А. Народное прикладное искусство Хорезмской области и его мастера. Рук. НИИИ АН РУз. Инв. № 141. 41 л.; Аведова Н. А., Морозова А. С., Махкамova С. М. Народное искусство Узбекистана. — Ташкент: Изд-во лит. и искусства им. Г.Гуляма, 1979; Абдуллаев Т. XIX —XX асрларда ўзбек кандакорлиги. —

Mustaqillikning ilk yillarida A. Xakimov²⁵ tadqiqotlarida O‘zbekiston amaliy san’atidagi an’anaviy o‘ziga xoslik va zamonaviy jarayonlar kesimida yog‘och o‘ymakorligidagi o‘zgarishlar ham tadqiq etiladi. Shuningdek, K.Akilova, E.Gyul, S.Aliyeva, SH.Abdullayeva, Q.Jumayev, Z.Nosirova, R.Fatxullayev, Z.Aliyeva, M.Abdullayev hamda B. Nodirning²⁶ ilmiy izlanishlarida o‘zbek xalq amaliy san’atiga oid tarixiy-nazariy masalalar o‘rganilgan.

Xorijda O‘zbekiston yog‘och o‘ymakorligi bilan bog‘liq maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. Lekin, qator kitob va ilmiy maqolalarda o‘zbek amaliy san’atidagi xususiyatlar haqida alohida tavsif va kuzatishlar mavjud. Y.Kalterning maqolalarida O‘zbekiston kulolchiligi, qurol-aslahalar, kiyim-kechaklar, ot anjomlari va zargarlik buyumlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan²⁷. K.Gibbon va A.Xeylning ilmiy izlanishlarida o‘zbek amaliy san’atidagi ba’zi bir muhim jihatlarga ahamiyat qaratilgan²⁸. Dissertatsiyada ko‘rib chiqilgan tadqiqotlardan farqli ravishda Toshkent yog‘och o‘ymakorligi tizimli o‘rganildi. Bu jarayonda usta-hunarmandlar ijodi ijobiy va salbiy jarayonlar kesimida tahlil etildi. Yuqorida tahlil etilgan ilmiy nashrlarning salohiyati va ko‘lamiga qaramay, o‘zbek xalq amaliy san’atidagi yog‘och o‘ymakorlik borasidagi umumlashma tadqiqotlar yo‘qligini ta’kidlash mumkin. Respublika san’atshunosligidagi tadqiqotlar negizida zamonaviy badiiy jarayonni tizimlashtirgan holda o‘zbek xalq amaliy san’atidagi Toshkent yog‘och o‘ymakorligi san’atini alohida tahlil etish muhim jarayon hisoblanadi.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limi **“Yog‘och o‘ymakorligi san’atining tarixiy tadriji (ilk o‘rta asrlardan XX asrga qadar)”** deb nomlanadi. Yog‘och o‘ymakorligi tarixi uzoq evolyusiya yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, milodiy minginchi yillar boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida yog‘och o‘ymakorligi, ayniqsa, yog‘ochdan turli hayvon va odamlarning haykalini, ularning tasviri tushirilgan turli ashyolarni tayyorlash, shaxmat donalarini ishlash keng rivojlangan. O‘ymakorlik sanatning dastlabki rivojlanish davri ilk o‘rta asrlarga to‘g‘ri keladi. Shu davrdan bugungi kunlargacha tasodifan yetib kelgan ayrim yog‘och parchalari, turli buyum bezaklari va yong‘in

Тошкент: Фан, 1974. – 128 б.; Абдуллаев Т., Фахриддинова Д., Хакимов А. Маъданга битилган кўшиқ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 251 б.

²⁵Хакимов А.А. Декоративное искусство Средней Азии / К проблеме традиций и новаторства. – Ташкент: Фан, 1988; Atlas of Central Asian artistic crafts and trades. A. Khakimov – author of the scientific project and author of the next chapters - Introduction, Ceramics, Copper Embossing, Knife making. Volume I. Uzbekistan. – Tashkent, 1999; Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкента, 2013. – С. 207; Хакимов А. Ўзбекистон хунарандчилиги дурдоналари. – Тошкент, 2019.

²⁶ Акилова К.Б. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана XX века: проблема развития: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. д-ра искусствоведения: 17.00.04. – Ташкент, 2002.; Гюль Э. Проблема этнокультурных взаимодействий в античном и средневековом искусстве Узбекистана / автореферат дис. на соис. уч. степени доктора искусствоведения по специальности 17.00.04. – Ташкент, 2002; Алиева С. XI–XXI аср боши Ўзбекистон сирланган кулолчилиги ривожланишининг асосий босқичлари ва бадий хусусиятлари. Санъатшунослик фанлари докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2018. Фатхуллаев Р. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистон амалий-безак санъатидаги тасвирий мавзулар. Санъатшунослик фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2000; Абдуллаев М. Хоразм амалий безак-санъатининг ривожланиш тарихи (XVI аср–XX аср бошлари)..

²⁷ Наследники Шелкового Пути. Узбекистан // Каталог выставки и сборник статей. Й.Кальтер, М. Павалой. – Штутгарт, 1995. – 368с.

²⁸Gibbon K..F., Hale A. Uzbek embroidery in the nomadic tradition. The Jack A. and Aviva Robinson Collection at the Minneapolis Institute of Arts. 2007. – P. 16-17.

paytida to'liq yonib ulgurmagan yog'ochning ko'mirga aylangan qoldiqlari shunday fikr yuritishga asos bo'ladi. Shuningdek, eng e'tiborga molik eksponatlardan yana biri – Kofirqal'adan topilgan kuygan yog'och eshikdir. Mazkur pannoda hosildorlik va barcha tirik mavjudotlar ilohasi, O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan qadimiy davlat — So'g'dda eng ardoqli hisoblangan Nana ma'budasi gavdalangan²⁹. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo yerlarida islom dini yoyilishi bilan yangi bezak hamda naqshga bog'liq yo'nalish rivojlandi. Eshik yuzasida borliqni aks ettiradigan tasvirlar emas, balki uning ramziy va soddalashgan ko'rinishlari bo'lgan naqsh o'ymakorlik san'ati ifoda topdi va davr talabi asosida arabiy yozuvli epigrafik tasvirlar bilan boyitildi. Eshik yuzasiga to'rtburchak, kvadrat yoki turunj shaklidagi kompozitsiyalar ishlanib ularda islimiy va handasaviy tasvir turlari uyg'unlashdi. Bu tasvirlarda turli ramziy belgi, shakllar, o'simliklar, zoomorf va antropomorf motivlar aks ettirildi.

Yog'och o'ymakorligining noyob yodgorligi Ichan qal'adagi (Xiva) Juma masjidi, Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi devori orasidan topilgan XII asrga oid yog'och o'ymakorligi namunasi, Buxorodagi Shayx Sayfiddin Boharziy (1261 yil) dahmasidagi yog'och taxtadagi g'oyat murakkab va nafis bajarilgan naqshlar ustalarning yuksak did va mahoratidan, o'ymakorlik san'at darajasiga yetganligidan dalolat beradi.

Amir Temur va temuriylar davrida o'lkada yangi madaniy hayot boshlandi. Saqlanib qolgan yodgorliklar orasida ustun va eshiklar alohida o'rin egallaydi va eng sara namunalarni biz asosan maqbaralarning bezaklarida uchratishimiz mumkin. “Bu Shayx Shamsiddin Kulol (Shaxrisabz, XIV – XV asrlar), Xazrati Imom (Shaxrisabz), Xo'ja Axmad Yassaviy (Turkiston), Qusam ibn Abbos (Shaxi-Zinda, Samarqand), Go'ri Amir (Samarqand) maqbaralarining yog'och o'ymakorligi eshiklari bo'lib, bugungi kunda ularning ayrimlari Ermitaj davlat muzeyida saqlanadi. Ularning barchasi temuriylar davri yog'och o'ymakorlari iqtidorining yorqin namunasi. Nafis yog'och o'ymakorligi zargarona aniqlik bilan kumush va perlamutr qadamalar, qimmatbaho yog'och navlari bilan uyg'unlikda bajarilgan³⁰. XVIII asrga kelib, mahalliy maktablar mukammal shaklda o'zini yorqin namoyon etdi, bular ichida Xorazm, Qo'qon, Toshkent, Buxoro, Marg'ilon maktablarini alohida qayd qilish mumkin. Ularning har biri usul va uslubda umumiyliklar bilan birga muayyan tafovutlarga ega bo'lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida maishiy buyumlarda yog'ochdan ishlangan jihozlar assortimenti kengayadi: bular juvoz, zarang tovoq, korson, lagandarvesh va cho'ponlar qo'llaydigan yog'och hassalar (govron), kamchi dastaklari, yog'och tumorlar, tasbehtarlar) va b. Shuningdek, masjid mehroblari yoki maqbaralardagi sag'analar bezagida ham ko'p hollarda yog'och o'ymakorligi bezaklari ustunlik qilgan.

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, rus-yevropa madaniyati orqali turli buyumlarning kirib kelishi bevosita xalq

²⁹ Амридин Бердимуродов, Геннадий Богомолов, Алишер Бегматов, Уно Такао. Кифирқалъа тилга кирмоқда. Фан ва турмуш/№1-2, Тошкент. 2018 – 3 б.

³⁰ Гюль Э. Архитектурный декор эпохи Темуридов: символы и значения Изд-ство “SAN'AT”. – Ташкент: 2014. – С. 57.

hunarmandchiligiga ham ta'sir ko'rsatdi. Endlikda mayda o'ymakorlik naqshlarini noan'anaviy buyumlarda, masalan dori qutilari, qush qafaslari, qutichalar, chemodanlar, portsigaralar kabi buyumlarda uchratish mumkin bo'ldi.

Bobning uchinchi bo'limi **“O'zbekistonda yog'och o'ymakorlik maktablarining xususiyatlari”**ga bag'ishlanadi. O'zbekiston amaliy-bezak san'ati turlari orasida texnikasi va naqshlar tizimi mukammal darajada rivojlangan yog'och o'ymakorligi alohida o'ringa ega. Ushbu san'at turining qadimgi bebaho namunalari Xiva, Buxoro, Qo'qon, Samarqand va Toshkent yog'och o'ymakorligi maktablarida kuzatiladi. Mazkur maktablar an'analari O'zbekiston yog'och o'ymakorlik maktablarining hususiyatlarini belgilab beradi. Xiva yog'och o'ymakorligi o'ymaning monumentalligi, yog'och tabiiy rangining saqlab qolishi, naqshlarning maydaligi, yuzaligi, zaminining kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqiligi (harakatchan, dinamikaviyligi), ya'ni novdalarni spiralsimon ishlanib ajoyib shakllar hosil qilishi bilan ham o'ziga xosdir. Ota Polvonov, Sapo Bog'bekov, X.Jumaniyozov, O.Otarboyev, O.Xo'janiyozov va boshqalar ushbu maktabning yetakchilari bo'lsa Buxoro yog'och o'ymakorligida Shavkat Ashurov hamda Karomat Muqimovning o'rni alohida sanaladi. Buxoro yog'och o'ymakorligida o'yma naqshning jozibadorligi, jimjima naqshlarni oltin, kumush suvi bilan bezatilishi, naqsh zaminida ranglardan foydalanish asosiy sanaladi. Shuningdek Qo'qon yog'och o'ymakorlari kalta bo'rtmali, yassi o'yma texnikasida ishlashgan. Marg'ilon yog'och o'ymakorligi chuqur zaminli yassi o'ymani qo'llab kelgan. Usta Akbarali Haydarali o'g'li, Usta Jamoliddin Shahobiddin o'g'li, Bahriddin Jamoliddin o'g'li kabi ustalar yirik maktabni shakllantirishgan bo'lsa, Qodirjon Haydarov va ustaning nabiralari – Mirzausmon, Mirzayunus, Hasanjon Umarovlar va ularning farzandlari uch usul – bag'dodi, islamiy va pargori naqshlarini keng qo'llagan. Bundan tashqari, Samarqand yog'och o'ymakorligida boshqa maktablarga qaraganda o'ymalarining juda mayda o'yilishi, kompozitsiyasining murakkabligi hamda ishni zamin va relyeflarni laklashdan boshlanishi e'tiborni tortadi. Asosan chinor, dub, buk va terak kabi daraxt yog'ochlari keng ishlatiladi. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi namoyondalaridan Jumaboy Murodov, Abduhofiz Jalilov, Usta Nasrulla, Nurali Nazrullayev va boshqalardir. Samarqandlik o'ymakor usta Mirumar Asadov, Mirjamol Asadov kabi ustalarni sanab o'tishimiz mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“ XX - XXI asrda Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabining rivojlanish dinamikasi”** deb nomlangan. Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabi o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanishida va takomilida alohida o'rin tutadi.

Mazkur bobning birinchi bo'limi **“Toshkent yog'och o'ymakorligining badiiy maktab sifatida shakllanishi”** deb nomlanadi. Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabi o'zbek yog'och o'ymakorligi san'atining rivojida alohida o'rin tutadi. Toshkentlik T.Ayyubxo'jayev, A.Tursunboyev, S.Xo'jayev, M.Qosimov, N.Ibragimov, O.Fayzullayev yog'och o'ymakorligi an'alarini davom ettirib, yangi ohanglar bilan boyitdilar, ko'plab jamoat binolarini yog'och o'ymakorligi bilan bezadilar. A.Azlarov, G'.Yo'ldoshev, S.Rahmatullayev, X.Odilov, A.Abduraxmonov, A.Ashirov, J.Gaipov, B.Ganiyev, Z.Isomuxamedov

kabi toshkentlik ustalar an'anaviy hunarmandchilikning yo'qotilgan usullarini tiklash, uni yanada rivojlantirish yo'lida izlanmoqdalar. "Hunarmand" uyushmasida bugungi kunda 900 dan ortiq toshkentlik ustalar a'zo va bu sonlar nafaqat poytaxtda badiiy hayotning rivojlanganligi, balki mahalliy maktabni saqlab qolishda vorisiylik, "ustoz-shogird" an'analari bardavom bo'layotganligidan darak beradi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi **"Raxmatullayevlar sulolasi"** deb nomlanadi. Mazkur bo'limda Toshkent yog'och o'ymakorlik maktabidagi sulolaviy o'ymakor oilasiga murojaat qilingan. Ta'kidlash joizki, davrlar o'tishi bilan o'ymakorlik san'atining chegarasi kengayib, asta-sekin oddiy xalq hayotidan ajrala boshlagan va kiboriy (aristokratik) ruh olgan.

Toshkent yog'och o'ymakorligining davomchisi, sulolaviy ustalarning bir vakili, Ortiq Fayzullayevning shogirdi Sirojiddin Rahmatullayev sanaladi. Ustani uzoq yillik faoliyati e'tiborga olingan holda O'zbekiston xalq ustasi (2003) unvoni berilgan. Sirojiddin Raxmatullayev va Raxmatullayevlar sulola vakillari tomonidan Turkiston zali (1990), Oliy majlis binosi o'yma eshiklari (1997), Imom al Buxoriy majmuasi o'yma eshiklari (1998), Xotira maydoni (2000), shahidlar maydoni (2000), Samarqand tumani hududida joylashgan Xalqaro turizm markazining "Boqiy shahar majmuasi" (2022) o'yma ishlari amalga oshirilgan.

Mazkur bobning uchinchi bo'limi **"Ibragimovlar sulolasi"** ning vakillariga bag'ishlangan. Ibragimovlar sulolasi 19-asrda yashagan hunarmand Ibrohim ota nomi bilan boshlanadi. Uning o'g'li Nig'mat Ibragimov Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabining vakili, ustaning ijodida me'moriy inshootlar bezagi, ustun, eshiklar bilan bir qatorda qator maishiy buyumlarni ishlagan. N.Ibragimovning ushbu san'atga qo'shgan hissasi shundaki, u zamonaviy mebellarga o'yma bezaklarni birinchilardan bo'lib ishlashga urinishlar qilgan.

Sulola vakili Muharram Ibragimova tomonidan yog'och o'ymakor ustalari ichida birinchilardan bo'lib tomosha qovoqda turli ko'rinishda o'yma naqshlarni o'yish texnologiyasini ishlab chiqdilar. Ustaning badiiy merosini uning o'g'li Jamshid Gaipov saqlab va rivojlantirib kelmoqda. U o'ttiz yoshida o'zining badiiy maktabini yarata oldi. Yog'och o'ymakorligi san'atining oilaviy an'analari uning individual uslubi orqali boyitish ustaning asosiy maqsadi sanaladi. U ko'p qatlamli o'ymakor bezaklarni to'rt qatlamga qadar chuqurlashtiradi. Zamonaviy materiallardan ijodiy foydalangan holda yangi naqshlar o'ylab topadi va shirma, shift pannolarining funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Yog'och o'ymakorligida qo'p qatlamli texnika ustadan katta mahorat talab etadi. Bu jarayonda hunarmand hato qilishi mumkin emas, naqsh kompozitsiyasi—bu ustaning g'oyasini to'liq namoyon etuvchi yagona bezak³¹ ko'rinishida bo'lishi lozim.

Ikkinchi bobning to'rtinchi bo'limi **"Azlarovlar sulolasi"** deb nom olgan. Zamonaviy avlod ustalari orasida Azlarovlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular me'moriy inshootlar elementlari bilan bir qatorda maishiy buyumlar ustida ish olib

³¹ Ж.Гаипов билан интервью. 2024 йил.

boradilar. Mustaqillik yillarida ustalar Mustaqillik maydoni, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, “Turkiston” san’at saroyi kabi inshootlarning yog‘och eshiklari, ustun va frizlarini yaratishda o‘z hissalarini qo‘shganlar.

A.Azlarov ijodida lavh va laganlar ham Toshkent yog‘och o‘ymakorligi tamoyillarida davom etadi. Usta fonsiz o‘ymakorlikda chuqur fonga naqshlarni o‘yish usulida ishlaydi. 1990 yillarda G‘azalkent kinozali o‘yma eshiklari, Yangiyerda joylashgan kinozal uchun eshik, Kumushkon muzey qo‘riqxonasi uchun eshik, panjara, perilalar ishlaydi. Usta chuqur zaminli va yuqori bo‘rtmali fonsiz o‘ymakorlik texnikasida ishlaydi. Shuningdek, zamonaviy Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabining vakili Akmal Azlarov uzoq yillar davomida ustozlari Saidazim Qosimov hamda Ortiq Fayzullayevlardan yog‘och o‘ymakorlik sir-asrorlarini o‘rgangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Zamonaviy badiiy jarayonda yog‘och o‘ymakorligi san’atidagi yangiliklar”** deb nomlanadi. Ushbu bobda asosan Toshkent yog‘och o‘ymakorligining badiiy bezaklariga hamda Toshkent me’morligida yog‘och o‘ymakorligining o‘rniga ahamiyat qaratiladi. Bobning birinchi bo‘limi **“Toshkent yog‘och o‘ymakorligi maktabiga oid naqshlar tizimi, kompozitsiya, texnologiya masalalari”** deb nomlanadi.

